

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Termiz davlat universiteti rektori

A.R. Maraximov

” 07 ” 2023-yil

KASBIY (IJODIY) IMTIHON
DASTURI VA BAHOLASH ME‘ZONLARI

“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari

60210400 – Dizayn (Kompyuter grafikasi va badiiy foto)

Dastur, Termiz davlat universiteti o‘quv-uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. **2023-yil 6-iyuldagi 10-sonli** yig‘ilish bayonnomasi.

Tuzuvchilar: **A.E. Turakulov** – TerDU, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrası dotsenti v.b., p.f.n.

X.A. Turayev – TerDU, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.

X.X. Xasanov – TerDU, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrası dotsenti v.b.

Taqrizchilar: **R.T. Norchayev** – MRDI, Amaliy grafika va badiiy fotografiya kafedrası mudiri, dotsent

D.K. Mamatov – BuxDU, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD), professor

I.B. Kamolov – QarDU, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD), professor

:

KIRISH

Mazkur dasturda, 60210400 – Dizayn (Kompyuter grafikasi va badiiy foto) ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan fanlarning dolzarbligi, jamiyatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida isloh qilishdagi ahamiyati va o'rni ochib berilgan.

60210400 – Dizayn (Kompyuter grafikasi va badiiy foto) ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va baholash mezonlarida ushbu yo'nalishning kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga kirish bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon topshiriqlarni bajarish va ularni baholash mezonlari tasrtibini belgilaydi.

“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu sinov dasturi mezonlarining murakkabligiga qo'yiladigan talablar asosan ixtisoslashtirilgan san'at maktablari hamda maktab-internatlarida o'qitiladigan fanlar va dasturlarida belgilangan vazifalarni qamrab oladi.

Respublikamizda badiiy ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish, shuningdek, abituriyentlarda dizayn sohasi turlaridan kelib chiqib tasviriy san'atdagi kasbiy mahurat, amaliy ko'nikmalarning shakllanganlik va ijodiy faoliyatga moyillik darajasini aniqlashga qaratilgan.

1. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar.

1.1. 60210400 – Dizayn (Kompyuter grafikasi va badiiy foto) ta'lim yo'nalishi bo'yicha kunduzgi ta'lim shakliga o'qishga kiruvchi abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni “Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlaridan topshiradi.

1.2. “Chizmatasvir” fanidan “Gipsdan yasalgan antik haykal bilan natyurmort” uslubiy fonda qo'yiladi. Abituriyent bunda buyumlarning plastikasini chuqur tahlil qilinishi, naturani joylastirish jarayonida atrof-muhit inobatga olinishi, predmetlar proporsiyasi, katta va kichik hajm ko'rinishlariga ahamiyat berish, ijodiy ishni bajarishda e'tibor bilan, nozik did asosida to'liq tugallangan holda bajarishi talab qilinadi.

1.3. Kasbiy (ijodiy) imtihonda “Chizmatasvir” fanidan ijodiy ishni bajarish uchun **160** (bir yuz oltmish) **daqiq**a vaqt ajratiladi.

1.4. Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan “Chizmatasvir” fani bo‘yicha bajarilgan ijodiy ish quyidagi baholash mezonlari asosida baholanadi:

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
“Chizmatasvir” fani bo‘yicha ijodiy ish		Jami 63 ball
1.	Naturmortning kompozitsiyon joylashuvi	7 ball
2.	Proporsiyalami to‘g‘ri topilishi	7 ball
3.	Rakurs holatining topilish darajasi	6 ball
4.	Katta va kichik shakllarning to‘g‘ri joylashganligi	6 ball
5.	Yorug‘ va soyani ishlanishidagi mahorati	6 ball
6.	Yuzaga to‘g‘ri joylashtirilganligi	6 ball
7.	Antik haykalning harakteri topilganligi	6 ball
8.	Antik haykalni atrof-muhit bilan bog‘langanligi	6 ball
9.	Chizmatasvirda ketma-ketlikning to‘g‘ri bajarilishi	6 ball
10.	Chizmatasvirning tugallanish darajasi	7 ball

1.5. “Kompozitsiya” fanidan abituriyent berilgan mavzu bo‘yicha topshiriqni moybo‘yoq, akvarel, guash, tempera va akrillardan birida ishlashni erkin (ixtiyoriy) tanlaydi. Kompozitsiya g‘oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi, kompozitsiya yechimini mavzu asosida topilganligi, badiiy va g‘oyaviy ifodada chizmatasvir va ranglar vositasidan foydalanish darajasi, shakl va plastic yechimini topilganligi, kompozitsion vazifasidagi asar chuqurligining perspektiv yechimi, kompozitsiya yechimining ifodali topilganligi, mavzuning mazmuni va g‘oyasini ochib berishda koloritdan foydalanilishi, kompozitsiyada mazmun, g‘oya va fikrning yoritilishi hamda tugallanish darajasi kabi masalalarni yoritib berishi talab etiladi.

1.6. Kasbiy (ijodiy) imtihonda “Kompozitsiya” fanidan ijodiy ishni bajarish uchun **160** (bir yuz oltmish) **daqqa** vaqt ajratiladi.

1.7. Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan “Kompozitsiya” fani bo‘yicha bajarilgan ijodiy ish quyidagi baholash mezonlari asosida baholanadi:

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
“Kompozitsiya” fani bo‘yicha ijodiy ish		Jami 93 ball
1.	Berilgan mavzu kompozitsiyasini qog‘oz tekisligiga to‘g‘ri joylashtirish	10 ball
2.	Kompozitsion xarakterini ochib berilganligi	10 ball
3.	Badiiy va g‘oyafiy ifodada ranglardan to‘g‘ri foydalanilganligi	9 ball
4.	Asarning kompozitsion g‘oyaviy mazmuni	9 ball
5.	Kompozitsiya mavzu jihatidan orginal topilganligi	9 ball
6.	Kompozitsiyani perspektivada to‘g‘ri topilganligi	9 ball
7.	Tasvirning dizayn mutaxassisligiga mosligi	9 ball
8.	Kompozitsiya markazining to‘g‘ri topilganligi	9 ball
9.	Mavzuning mazmuni, ma‘nosi hamda ranglar uyg‘unligi	9 ball
10.	Ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasi	10 ball

2. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi.

60210400 – Dizayn (Kompyuter grafikasi va badiiy foto) ta’lim yo‘nalishining kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida, belgilangan kunlarda, belgilangan fanlardan, dasturda ko‘rsatilgan vaqt davomida ijodiy ish bajaradilar. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan 30 (o‘ttiz) nafar abituriyentlardan iborat bo‘lgan guruhlar kesimida ijodiy imtihon uchun maxsus jihozlangan auditoriyalarda kamida 15 (o‘n besh) nafar abituriyentlardan iborat kichik guruhlar kesimida o‘tkaziladi. Abituriyentlar

maxsus tekshiruvdan o'tkazilib, belgilangan tartib-qoidalarga amal qilgan holda bino va auditoriyalarga kiritiladi.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo'yicha "Apellyatsiya" tartibi.

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalariga ko'ra natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 (yigirma to'rt) soat ichida universitet qabul komissiyasining Apellyatsiya kengashiga ariza bilan murjaat qilishlari mumkin.

Arizalar faqat ular (o'zi)ning ijodiy ishlari va ballari bilan bog'liq bo'lgan taqdirdagina qabul qilinadi. Aksincha, boshqa abituriyentlarning ijodiy ishlari va ballari bilan bog'liq bo'lgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asos: Vazirlar mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-sonli qarorining 1-ilovasida keltirilgan "Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi NIZOMI.



Uslubiy ko'rsatmalardan namunalar

“CHIZMATASVIR” FANI BO‘YICHA

60210400 – Dizayn (Kompyuter grafikasi va badiiy foto)

Vazifa: Gipsdan yasalgan antik haykal bilan natyurmort.

Namunalar:




“KOMPOZITSIYA” FANI BO‘YICHA

60210400 – Dizayn (Kompyuter grafikasi va badiiy foto)

Vazifa: Mutaxassislikdan kelib chiqib berilgan vazifa yoki mavzu bo‘yicha maxsus kompozitsiya yaratish.

Namunalar:



World Wildlife Day

